FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS THROUGH OBJECT-ORIENTED PROGRAMMING LANGUAGES .....	389-393
<i>Khojamkulov Rasulbek Kurbon ogli</i>	
THE IMPORTANCE OF DEVELOPING DESIGN COMPETENCES OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS .....	394-398

---

<i>Zakirova Zulkhumor Zairjonovna</i>	
THE ROLE OF TEACHER QUESTIONING IN DEVELOPING CRITICAL THINKING SKILLS AS A WAY TO INDEPENDENT LEARNING .....	399-404
<i>Eshnazarov Murad Karimovich</i>	
IMPROVING PROFESSIONAL PREPARATION OF FUTURE TEACHERS BASED ON THE HERMENEUTIC APPROACH .....	405-410
<i>Menglikulov Khairulla Alikulovich</i>	
DIFFERENTIAL APPROACH TO FORMING SWIMMING ABILITIES AND SKILLS IN FEMALE STUDENTS .....	411-415
<i>Komilova Dildora Gulamjanovna</i>	
DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMMUNICATIVE COMPETENCE OF ECONOMICS STUDENTS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING .....	416-420
<i>Turdimurodov Dilmurod Yuldashevich</i>	
ADAPTIVE REACTIONS OF ATHLETES TO TECHNICAL ACTIONS IN BOXING .....	421-426
<i>Abdullayev Dilshod Xamidullo o'g'li</i>	
CONDITIONS AND METHODS OF TEACHING ACTIVITY GAMES TO CHILDREN .....	427-432
<i>Akhmedov Akmal</i>	
IMPORTANT CRITERIA FOR PREPARING FUTURE PSYCHOLOGISTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN THE PROCESS OF HIGHER EDUCATION .....	433-440
<i>Donisheva Gulro'y Axrorqul qizi</i>	
USE OF IT IN THE PROCESS OF LEARNING A FOREIGN LANGUAGE .....	441-444
<i>Qurbanboyeva Dilfuz Shukur qizi</i>	
FORMING COMMUNICATION COMPETENCES OF STUDENTS .....	445-449
<i>Erkaboev Oybek Mukhammadzhonovich</i>	
THE GROWTH RATE OF INDICATORS OF SPECIFIC COORDINATION ABILITIES OF CHILDREN AGED 6 YEARS .....	450-456
<i>Abatov Jalgasbay Orinbaevich</i>	
TEACHING FINE ART LESSONS IN CONNECTION WITH HISTORY .....	457-463
<i>Akramjonova Feruza Akramjonovna</i>	
INFLUENCE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT ON THE EDUCATIONAL PROCESS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION .....	464-468
<i>Makhmudova Zulfiya Khomitovna</i>	
ORGANIZATION OF PRESCHOOL EDUCATION AND FAMILY COOPERATION .....	469-476
<i>Abduvasieva Mahmuda Khamidullo qizi</i>	
UNIQUE ASPECTS OF THE CHINESE EDUCATION SYSTEM .....	477-483
<i>Boboqulov Chori Urolovich</i>	
PEDAGOGICAL PROBLEMS IN THE FORMATION OF MENTAL ABILITIES IN PRIMARY CLASS STUDENTS AND THEIR SOLUTION .....	484-489
<i>Esanova Gulchehra</i>	
PRINCIPLES AND METHODS OF PHYSICAL TRAINING OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS .....	490-497

**07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES**

**Received:** 22 April 2024

**Accepted:** 1 May 2024

**Published:** 10 May 2024

*Article / Original Paper*

**THE IDEOLOGICAL WORLD OF THE ANCIENT AND MEDIEVAL POPULATIONS  
OF THE OHANGARON VALLEY (BASED ON MATERIAL SOURCES FOUND AT  
THE SUYURLITEPA SITE)**

**Ismailov Ubaydulla Mamat ugli**

Doctoral student at the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan

E-mail: [ubaydulla.ismoilov.94@mail.ru](mailto:ubaydulla.ismoilov.94@mail.ru)

**Abstract.** This article is dedicated to an in-depth study of the spiritual and cultural life of the inhabitants of the Ohangaron Valley during ancient and medieval times. Based on archaeological excavations and discovered artifacts, it provides information about the religious beliefs, culture, and social life of the population that lived in the Ohangaron Valley. The lifestyle, religious ceremonies, and ideological views of the inhabitants of this region during the ancient and medieval periods are analyzed.

**Keywords:** Ohangaron, Iloq, terracotta, shamanism, fire worship, statuette, Qovunchi culture, Farn, clay tableware, pentagram.

**OHANGARON VODIYSI AHOLISINING QADIMGI VA O'RTA ASRLAR DAVRI  
MAFKURAVIY DUNYOSI (SUYURLITEPA YODGORLIGIDAN TOPILGAN  
MODDIY MANBALAR ASOSIDA)**

**Ismailov Ubaydulla Mamat o'g'li**

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Ohangaron vodiysining qadim va o'rta asrlardagi aholisining ma'naviy va madaniy hayotini chuqur o'rganishga bag'ishlangan. Arxeologik qazilmalar va topilgan yodgorliklar asosida Ohangaron vodiysida yashagan aholining diniy e'tiqodlari, madaniyati va ijtimoiy hayoti haqida ma'lumot beriladi. Qadim va o'rta asrlar mobaynida bu hududda istiqomat qilgan aholining turmush tarzi, diniy marosimlari va mafkuraviy qarashlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Ohangaron, Iloq, terrakota, shamanizm, otashparastlik, statuetka, Qovunchi madaniyati, Farn, sopol dasturxon, pentagram.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I5Y2024N01>


**Kirish.** Ohangaron vodiysi – O'zbekistonning qadimiy va boy tarixga ega mintaqalaridan biri. Bu vodiylas, asosan, o'zining qadimgi shaharlari, moddiy madaniyat yodgorliklari va turfa xil arxeologik topilmalari bilan mashhur. Qadimgi va o'rta asrlar davrida Ohangaron vodiysi aholisining mafkuraviy dunyosi, ularning diniy, madaniy va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liq edi.

Qadimgi davrda Ohangaron vodiysi aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Bu davr mafkuraviy dunyosida otashparastlik, shamanizm, totemizm, animizm kabi diniy va mifologik tasavvurlar muhim o'rin tutgan. Arxeologik topilmalar orqali aniqlangan qabristonlar, haykallar va boshqa madaniy obyektlar bu davrda aholining diniy mafkuraviy dunyosini aks ettiradi.

Milodiy III – IV asrlarda Suyurlitepa hududida yashagan aholi inson vafot yetgandan so'ng narigi dunyoda hayot davom yetishiga ishonishgan. Shu sababdan ham ular dafn etgan mayitlar qoshida turli xil buyumlar, sopol idishlar qoldirishgan.



1-qabrning ochilgandan keyingi ko'rinishi.



2-qabrning chizmasi va tabiiy ko'rinishi.

I-rasm. Suyurlitepa qabristonida hududida ochilgan qabrlar

Suyurlitepadan boshqa hududlarda ochilgan ushbu davr qabrlarida marhum bilan birga juda ko'plab narsalar qo'shib ko'milganligi aniqlangan. Xususan, taqinchoqlar, pichoqlar, kamon o'qining uchi, qilichlar, oltindan yasalgan buyumlar shular jumlasidandir [4]. B. Isabekov tomonidan Taypan, Turqushin, Do'lanaabuloq, Yuqori Chinor, Ertosh-do'lana kabi yodgorliklarda ko'plab qabrlar tadqiq etilgan bo'lib, ularning hammasida mayit yonida buyumlar, eng kamida idishlar qo'yish holatlari kuzatilgan. 2023-yilda Parkent tumani hududida ham shunday qabrlardan biri ochib o'rganildi [12]. Quyoshga e'tiqod qiluvchi qadimgi aholi dafn marosimlarida kunchiqar tomon e'tiborga olingan. Shu boisdan murdaning boshini ko'p hollarda sharq tomonga joylashtirishgan (boshqa dinlar, xususan, musulmon an'analarida marhumning boshi shimolda, yuzi esa ibodat qilinadigan tomon, ya'ni qibлага qaragan holda dafn etiladi). Mayitlarning bosh tomonida ular foydalangan buyumlar: kamon o'qlarining uchi, taqqan taqinchoqlari, qabiladoshlari tomonidan sopol idishlarda keltirilgan ovqatlar qo'yilgan. Shu vaqtgacha olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, tog'li hududlarda joylashgan qabrlarnning mayitlari yoniga buyumlar qo'shib ko'mish an'anasi ko'p kuzatiladi [23]. Bunda marhum «o'liklar mamlakati», ya'ni narigi dunyoga borganda yoniga qo'yilgan buyumlardan foydalanadi degan qarashdan kelib chiqib dafn etilgan.

Marhum yoniga qo'yilgan buyumlar, albatta, uning hayoti bilan bog'liq bo'lган. Agar u jangchi tirikligida jangchi bo'lsa, yonida eng kamida kamon o'qining uchi, qilich, xanjar

kabilarni uchratish mumkin. Agar qabila boshlig'i yoki zodagonlardan bo'lsa, hayotligida to'plagan boyliklaridan qo'shib ko'milgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Suyurlitepa yodgorligining janubida olib borilgan qazishmalarda yarim yerto'lalardan iborat uy-joylar uchratildi. Qazuv vaqtida to'rt dona buqa boshi shaklidagi arxeologik butun buyumlar topildiki, bunday buyumlardan o'z davrida qozon tagligi sifatida foydalanilgan. Ko'plab qadimgi madaniyatlarda, jumladan Markaziy Osiyoda, buqa muqaddas hayvon sifatida e'tirof qilingan va unga kuch, seroblik, qut ramzi sifatida qaralgan. Bu topilma odamlarning bu hayvonlarga sig'inishi yoki ularni muqaddas hisoblashganidan dalolat beradi [15]. V.A. Litvinskiy idishlarda hayvon shaklining ishlanishini Farn (baxt, omad, qut, hosildorlik) mabudiga bo'lgan e'tiqod bilan bog'laydi [13]. Qovunchi II\* bosqichining oxirida buqa bosh shaklidagi tagliklar, shuningdek, to'ng'iz [20], ot [10], baqaning terrakota haykalchalari, qo'y [24], bo'ri [21] paydo bo'lgan, bu hayvonlarga hurmat belgisidir [22]. Agar Ohangaron vodiysi shaharlarida ayol figurasi hosildorlik ramzi bo'lsa, qo'y ilohiy qut ramzi bo'lgan bo'lsa, vepr Avesta kultidagi eng qudratli xudolardan birining - g'alaba xudosi Veretragnanining ramzi edi. Avesta gimnlaridan biriga ko'ra, Veretragna, Quyosh xudosi Mitrani hamrohlik qilib, insonlarga shon-shuhrat keltiradi, kuch beradi, davolaydi va yovuz ruhlarni quvadi. U turli (**oltin shoxli buqa, qulog'i va jilovi oltin oq ot, tuya, burgut, yovvoyi qo'y**) qiyofalarda paydo bo'ladi va **to'ng'iz** ulardan faqat biridir.

Topilmalar orasida qurbaqa shaklidagi tagi tekis terrakota haykalcha ham topilgan bo'lib, uning ham izohini mafkuraviy hayot bilan bog'lash mumkin. Qadimdan suv manbalariga bag'ishlab o'tkazib kelingan marosimlarda hayvonlardan unumli foydalanilgan. Hayvonlar tabiat kuchlari va inson o'rta sidagi vositachi sifatida tasavvur qilingan. Ayniqsa, suv chaqirish marosimida o'zbeklarda azaldan qurbaqa va toshbaqadan foydalanib kelingan. Ular namgarchilik ramzi sifatida ulug'langan hamda ushbu xususiyati tufayli yomg'ir chaqirish marosimida qo'llanilgan [1]. O'zbek xalqi dunyoqashida qurbaqa namgarchilik ramzi bo'lib kelgan [7]. Xalqimiz ushbu jonivorni "*tabib*" deb ham atagan. Chunki, an'anaviy chorvachilikda undan qoramolni turli kasalliklardan davolashda foydalanib kelingan [1].

O'zbekiston hududidagi eng qadimiylar baqa statuetkasi Sopollitepa yodgorligidan topilgan. U mergeliy toshidan ishlangan [3]. Baqa topinchi bilan bog'liq moddiy manbalar arxeologik tadqiqotlar jarayonida Ustrushona hududida Kurkad daxmalaridan [14] va Yerqo'rg'on ibodatxonasidan ham topilgan [18].

\* Ковунчи маданияти – Сирдарёнинг ўрта ҳавзаларида (Тошкент воҳаси ва Жанубий Қозоғистон) милоддан аввалиги II-аср – милодий VI-асрга оид археологик маданият. Ўрганилган жой дастлаб Ковунчитепа харобаси бўлгани учун шундай ном олган. Уни илк бор археолог Г.В. Григорьев 1934-1937 йилларда Тошкент вилояти Янгийўл шахри худудида жойлашган Ковунчитепада археологик изланишлар олиб бориб, унинг халқи қадимги Тошкентнинг чорвадор ва ўтроқ аҳолиси қоришувидан ҳосил бўлган маданият, деган хуносага келган. Г.В. Григорьев хуносалари кенг кўламда олиб борилган археологик тадқиқотлар асосида тасдиқланган. Милодий эранинг II-III асрларидан бошлаб Ковунчи маданияти шимолий Фаргона ва унинг ички туманларигача, Қадимги Хоразм ва Зарафшон водийсига, IV-V асрларда Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятларигача кириб боради. Бу тарихий манзара илк ўрта асрлар даври археологик комплексларида яхши кузатилади.



2-rasm. Buqa boshi shaklidagi qozon tagliklari

Ohangaron vodiysi qadimgi davr aholisining ma'naviy hayotida baqa bir tomondan hosildorlik ximoyachisi va xomiysi, ikkinchi tomondan faqatgina o'simlik, hosilining ximoyachisi emas, balki insonning o'zini va naslining himoyachisi sifatida ham qabul qilingan bo'lishi mumkin.

Yarim yerto'lalarda topilgan buyumlar ichida ikki tomonga qaragan ikki qo'y shaklidagi, otning boshi shaklidagi hamda hayvon shoxi shaklidagi qopqoq tutqichlari ham uchratildi. Bundan tashqari qazishma jarayonida buqaning haqiqiy shoxi ham topildi. Bularni ham III – IV asrlardagi hayvonlarga hurmat belgisi deb tushunish mumkin. Qolaversa, idishlarda jonivorlar tasvirining ko'p uchrashi o'sha davr aholisining asosiy mashg'uloti – chorvachilik bo'lganligi haqidagi xulosalarni ilgari surishimizga asos bo'ladi.



3-rasm. Baqa shaklidagi statuetka



4-rasm. Hayvonlar shakli ishlangan qopqoqlar


VIII asrda Toshkent vohasi hududlariga islom dini kirib kela boshlagandan keyin qadimgi aholining hayvonlarga bo'lgan mafkuraviy qarashlari, ehtiromining elementlari u yoki bu shaklda saqlanib qoldi. Bundan shaharning shimoliy qismlarida olib borilgan arxeologik qazishmalarda topilgan moddiy ashyolar guvohlik beradi. Xususan, 2022-yilgi qazishmalarda bu hududdan ilon boshi shaklidagi qizlar bilakuzugi topildi. Ilonlar tabiat bilan chuqur aloqador mavjudotlar sifatida ko'rildi. Ular yer osti va yer yuzasi o'rtasidagi bog'liqliknii ifodalaydilar, shuning uchun ilon boshi shaklidagi bilaguzuklar tabiat kuchlari bilan aloqani ramziy ifodalashi mumkin. Bronza davriga oid Sopollitepa yodgorligidan ham ilonboshli bilaguzuklar topilgan [6]. Ilon ayrim adabiyotlarda hosildorlik e'tiqodi, naslning davomiyligi va avlodni saqlab qolish haqidagi tushunchalar bilan bog'lanadi [25].

Topilmalardan biri metal moychiroqning oyoq qismi bo'lib, u ot tuyog'i shaklida yasalgan. Ya'ni shamchiroqni ko'tarib turuvchi qismlar ot tuyog'i shaklida ishlangan.



*Suyurlitepadan topilgan chiroq oyog'i*  
0 5 sm

*Chiroq. X - XI asrlar. Taroz shahri. Qozog'iston.*



*6-rasm. Ot tuyog'i shaklidagi chiroqdon oyog'i*

2022-yili qazishmalar natijasida ochilgan binoning markaziy xonasidan to'g'ri to'rtburchak shakldagi o'ra ochildi. Uning ichidagi topilmalar ichida bir tosh bo'lagi diqqatga sazovardir. Uning bir tomoniga xoch belgisi, ikkinchi tomoniga esa, 6 qirrali yulduzcha tasviri o'yib tushurilgan.

Hozirda Xoch xristianlik dinining asosiy ramzi hisoblanadi. Lekin bu belgining kelib chiqish tarixi, xristianlik dinidan ancha oldinga borib taqaladi.

Shu bilan birgalikda xoch tasvirini ilk o'rta asr Choch tangalarida ham ko'p uchratish mumkin [8]. Turkiy xalqlarda ham bu belgi qabul qilingan bo'lib, u taqdir chambaragini anglatadi. Bunday belgili tangalar Turkiston o'lkasining juda ko'plab hududlarida uchratilgan [2].



7-rasm. Xoch tasviri mayjud Choch tangasi va Suyurlitepadan topilgan xoch tasviri o'yilgan tosh

**Muhokama.** Markaziy xonaning chekka qismidan kul qatlami orasidan suyakdan qilingan taroq va uning sharq tomondagi paxsa devor yonidan sopol dasturxonning sinib ketgan yarim qismi uchratildi. Dasturxonning qolgan qismi markaziy xonaning shimal qismidagi devor yonidan topildi. Dasturxonning diametri 40 sm ni tashkil qiladi. Qo'lda yasalgan, 3 ta oyog'i bor. Bunday sopol buyumlar asosan o'rta asr madaniy qatlamlarida aniqlangan [15]. Tadqiqotlarga qaraydigan bo'lsak, dasturxonlar Farg'ona, Yettisuv va Toshkent hududlarida joylashgan VII–XII asrlarga oid yodgorliklarda ko'p topilgan [9]. Dasturxonlarning kelib chiqishi Markaziy Osiyo hududlariga borib taqaladi. Arxeologlardan L.Sokolovskaya, G.Bogomolov, O.Papaxristular sopol xontaxtalar xususida yozishgan [17]. Suyurlitepadan topilgan sopol dasturxonning o'ziga xos tomoni shundaki, u qo'lda yasalib, orqa tomoniga hunarmand tomonidan besh qirrali yulduzcha tasviri tushirilgan. Besh qirrali yulduzcha fanda pentogramma yoki pentakl, deyiladi. Islom dini bunga o'xshash belgilar va ramzlardan holi din hisoblanadi. Chunki, Islom dinida xudoning ekvivalenti sifatida sig'inish mumkin bo'lgan ramzlardan foydalanish taqiqланади.



8-rasm. Sopol dasturxon

Ayrimlar besh qirrali yulduzni musulmonchilik an'analari, ya'ni Islomning 5 arkoni bilan bog'lashadi: iymon, namoz, zakot, ro'za, haj. Lekin musulmonchilik an'analarida 5 qirrali yulduzcha yarim oy belgisi bilan doim yonma-yon keladi. Unda 5 qirrali yulduzchaning yakka holda kelishi nima bilan bog'liq bo'lishi mumkin?

Ayrim adabiyotlarga ko'ra pentagramning nuqtalari yer, olov, suv, havo va ruhni anglatadi va ko'p hollarda himoya belgisi sifatida foydalanilgan.

O'rta asrlardagi Sulaymon matnlarida "Sulaymon muhri" nomi ostida pentagrammaga katta ahamiyat berilgan. Isroillik tarixchi olim Gershon Skolem shunday deb yozadi: "Arab sahosida "Sulaymon muhri"dan keng foydalanilgan. Gektagram va pentagram bir-birining o'rnida qo'llanilishi oddiy holat hisoblangan". "Sulaymon matnlari"ning lotincha shakllarida "pentakulum" so'zi Sulaymon muhri bilan bog'liq bo'lgan barcha dumaloq belgilarga ishora qilish uchun ishlatilgan, garchi ularning aksariyatida pentagram bo'lmasa ham "Sulaymon kaliti" deb nomlangan yahudiylar manbasida ham o'nlab 5 qirrali yulduzchalar, pentakllar tasvirlangan.

Pentagram odadta inson shakli bilan bog'liq. Biroq, ba'zida bu Isoyi Masihning beshta yarasi bilan bog'liq: uning teshilgan qo'llari va oyoqlari, shuningdek, askarning nayzasi bilan

uning biqinidagi teshilish. Bu tushuncha XVI asrda Valeriano Balzani tomonidan yaratilgan "Ierogrif" asarida o'z aksini topgan.

Yahudiy jamoalari 5 qirrali yulduzni Muso payg'ambarga tushirilgan 5 kitobdan iborat Injilning birinchi 5 ta kitobi bilan bog'lashadi. Fikrimizcha, ushbu shahar savdo yo'li ustida joylashganligi tufayli unga turli din va madaniyat vakillari ko'chib kelib hayot kechirgan bo'lishi mumkin.

**Natija.** 2023-yilgi qazishmalar davomida qazishma maydoni g'arbga tomon kengaytirildi. Binoga g'arbdan kelib tutashgan yo'lakning g'arbidan yana bir xona ochildi. Xonaning janubiy devoriga yaqin joyda, pol ustida baliq shakliga o'xshash qilib yasalgan tumor topildi. Uning ranggi jigarrang, qora, qizg'ish ranglar qorishmasidan iborat. Toshning yuzasida dumaloq-dumaloq shaklidagi oq dog'lar mayjud. Ushbu oq dog'larni baliqning tangalariga o'xshatish mumkin. Tumorning uzunligi 5 sm., tagining eni 2,4-1,5 sm. bo'lib, yuqoriga qarab torayib boradi. Ushbu tosh tumorning jonivor shakliga o'xshatib ishlanishi, ushbu shaharliklarning qadimiy ajdodlari e'tiqodining qisman davomini kuzatishimizga imkon beradi. Garchi ushbu davrda islom dini o'z cho'qqisiga erishgan bo'lsada ushbu hudud aholisi eski an'analarini unchalik unutib yuborishmaganini ko'rsatmoqda.



9-rasm. BAliq boshi shakliga o'xshash taqinchoq va munchoqlar

**Xulosa.** Shunday qilib, O'rta asrlarda Islom dinining tarqalishi bilan Ohangaron vodiysining mafkuraviy dunyosida katta o'zgarishlar yuz berdi. Islom dini ilm-fan, madaniyat va san'atning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, milodiy III-IV asrlarda bu hududda yashagan aholi inson vafot etgandan so'ng narigi dunyoda hayot davom etishiga ishonishgan va dafn marosimlarida marhum bilan birga turli xil buyumlar qo'shib ko'mishgan. Bu an'analar turli hayvon shakllaridagi artefaktlar, jumladan buqa boshi shaklidagi arxeologik topilmalar orqali ham ko'rsatilgan. Bu topilmalar aholining diniy e'tiqodlari, dunyoqarashi va madaniyatining boy va xilma-xilligini aks ettiradi.

Islom dinining kirib kelishi bilan qadimgi aholining hayvonlarga bo'lgan mafkuraviy qarashlari, ehtiromining elementlari u yoki bu shaklda saqlanib qolgan. Xususan, ilon boshi shaklidagi qizlar bilakuzugi kabi topilmalar qadimgi e'tiqod va an'analarning davom etayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, turli xil diniy va mifologik ramzlar, jumladan besh qirrali yulduz va baliq shaklidagi tumorlar kabi topilmalar, aholining mafkuraviy dunyosi va e'tiqodlarining murakkabligini va ko'p qirralilagini namoyish etadi.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. А. Азизов. Ўзбек маданиятида ҳайвонот олами билан боғлиқ тасаввурлар (Фарфона водийси мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Тошкент, 2023
2. А.А. Михеева. Христианство на территории Средней Азии по археологическим источникам (IVв. – нач. XIII в.). Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Том I, II, III. Санкт-Петербург, 2023. 846 с.
3. А.Аскarov. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент. 1977. – С. 84.
4. Агзамходжаев Т. Раскопки погребальных курганов близ станции Вревской // ИМКУ. – Ташкент, 1961. – Вып. 2. – С 223-235.
5. Альбаум Л.И. Некоторые культовые предметы в Музее истории Узбекской ССР // Времен связующая нить. Ташкент, 1992. – С. 67-82;
6. Аскarov А. Сапаллитепа. Ташкент, 1973. – С. 97.
7. Аширов А.А. Ўзбек маданиятида сув. – Тошкент: Akademnashr, 2020. 76-бет.
8. Бабаяров Г. Заметки по истории нумизматики раннесредневекового Чача (III – VIII вв.) // Проблемы древней и средневековой истории Чача. / Под. ред. Ш. Камолиддин. Berlin: LAP Lambert Academic Publishing, 2013. С. 9-63.
9. Байпаков К.М., Ерзакович Л.Б. Керамика средневекового Отара. Алматы, 1990. 212 с.;
10. Беленицкий А.М. Конь в культурах и идеологических представлениях народов Средней Азии и Евразийской степей в древности и раннем средневековье // КСИА. – М.: Наука, 1978. – № 154. – С. 32.
11. Воронец М.Э. Каменное изображение змей из кишлака Сох Ферганской области // КСИИМК. Вып. 61. – Москва, 1961;
12. Д.Р. Нормуродов, Б.И. Исабеков. Кумушкондан янги топилган қадимий қабр-қўрғон тўғрисида мулоҳазалар. Elektron jurnal 2023-yil oktyabr oyi soni №10 (48). 167 – 172-betlar.
13. Литвинский Б.А. Канюйского-сарматский фарн.- Душанбе, 1968. - С. 46-58,75-111.
14. Мирбабаев А.М. Даҳмаки Курката: раскопки и исследования. Материальная и духовная культура Уструшаны//Древняя Уструшана: города, их локализация и хронология. – Душанбе. 2005. – С. 395.
15. Нормуродов Д. Тошкент воҳасининг қадимги ва ўрта асрлар даври моддий маданияти тарихи (милоддан аввалги XIII-милодий XIII аср бошлари): Тарих фани бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент, 2019. 81-бет.
16. Сагалаев А.М., Октябрьская И.В. Традиционное мировоззрение тюрков Южной Сибири. Новосибирск: Наука, сиб. отд, 1990. 209 с.
17. Соколовская Л.Ф. Неглазурованная керамика средневекового Самарканда, как фактор экономики городского ремесла (по материалам городища Афрасияб кон.VII нач.XIII вв): Дисс. канд. ист. наук. Ташкент, 1995. 112 б.
18. Сулейманов Р.Х. Нефедов Н. Раскопки святилища храма городища Еркургана. //ИМКУ . Вып.15. – Ташкент. – С.54-56.

19. Толстой Н.И. Переворачивание предметов в славянском погребальном обряде // Исследования в области балто-славянской духовной культуры: Погребальный обряд. Москва, 1990. С. 119-128;
20. Ю.Ф. Буряков. Канка и Шахрухия. Древние города Чача и Илака на Великом Шелковом пути. Ответственный редактор: Д.А. Алимова - Ташкент, 2011. Литвинский Б.А. Кангюйско-сарматский фарн. – Душанбе, 1968. – С. 92.
21. D. Normurodov, U. Ismoilov. On new discoveries of Kaunchi culture found in Yangiyul district.// Internotional Scientific. Jurnal Theoretikal & Applied Science. Volume. 92. Philadelphia, USA. 2020. Pr. 140-143.
22. D. Normurodov. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi. 2023. 468 bet.
23. Furqat Toshboyev. Ustrushona chorvadorlarining antik davrdagi madaniyati/«TAFAKKUR QANOTI» nashriyoti, 2014. 69-bet.
24. U.Ismoilov. Yuqori Ohangaron qadimgi davr aholisining ma'naviy hayoti (Ertosh-do'lana yodgorligi misolida). Muzeishunoslik XXI asrda: tadqiqotlar, an'analar va innovatsiyalar" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami. 3-kitob. 2023.
25. Г.Ч. Каттаева. Сополли маданиятининг заргарлик буюмлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Термиз 2021, 151 бет.

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 5 (4) – 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
мастъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).